



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024 - yil « 11 » noyabr 428 -son

Toshkent shahri

**Talaba-yoshlar o‘rtasida “Jadidlar jasorati – millatimiz faxri” hamda
“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzularida insholar
tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida**

Ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o‘rganish, talaba-yoshlarni yuksak ma‘naviyatni shakllantirish, jadidlarimizning badiiy asarlari roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish, jadid bobolarimiz faoliyatini o‘rganish, shuningdek, ularning ibratli hayoti va ijodi bilan tanishish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Talaba-yoshlar o‘rtasida **“Jadidlar jasorati – millatimiz faxri” hamda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”** mavzularida insholar tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab doimiy o‘tkazilib borilsin.

2. **Quyidagilar:**

Talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan **“Jadidlar jasorati – millatimiz faxri”** hamda **“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”** mavzularida insholar Tanlovini o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan **“Jadidlar jasorati – millatimiz faxri”** hamda **“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”** mavzularida insholar Tanlovini o‘tkazish Nizomi 2-ilovaga muvofiq;

talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan **“Jadidlar jasorati – millatimiz faxri”** hamda **“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”** mavzularida insholar Tanlovining final bosqichini tashkil etish va g‘oliblarni taqdirlash bilan bog‘liq xarajatlar smetasi 3-ilovaga muvofiq;

talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan **“Jadidlar jasorati – millatimiz faxri”** hamda **“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”** mavzularida insholar tanlovining o‘tkazish sanalari va joylari jadvali 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N.Kasimov), Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi** Tanlovni tashkil etish bilan bog'liq barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirsin hamda Tanlovni nizom talablari asosida yuqori saviyada o'tkazishni ta'minlasin.

4. **Oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filial direktorlari:**

Tanlovda oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan ixtiyoriy ravishda ishtirok etish istagini bildirgan talaba-yoshlarning o'z iqtidorini namoyon qilishiga sharoit yaratsin;

4-ilovaga muvofiq tanlovni o'tkazishga mas'ul oliy ta'lim muassasalari tanlovni belgilangan muddatlarda yuqori saviyada o'tkazsin.

5. **Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi (M. Xamrayev):**

Tanlov natijalari yuzasidan rasmiylashtirilgan bayonnoma taqdim etilganidan so'ng, Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan g'olib bo'lgan ishtirokchilar tahsil oladigan oliy ta'lim muassasalariga nizomda belgilangan tartibda pul mukofotlarini ajratsin;

“Jadidlar jasorati – miliatimiz faxri” hamda “Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari” mavzularida insholar Tanlovining respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash uchun statuetka, vaucher, ramka, gul va diplom qog'ozlari uchun xarajatlarni 3-ilovadagi xarajatlar smetasiga muvofiq, vazirlikning Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan, Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markaziga ajratish choralari ko'rsin.


6. Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazir o'rinbosari S. Buzrukxonov zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**




Talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan "Jadidlar jasorati – millatimiz faxri"
hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari"
mavzularida insholar tanlovini o'tkazish bo'yicha
Tashkiliy ishchi guruh tarkibi

1. Buzrukxonov Sarvarxon - Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Munavarxonovich o'rinbosari, *Tashkiliy ishchi guruh raisi*
2. Kasimov Nodir - Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Ulug'ovich boshqarma boshlig'i, *Tashkiliy ishchi guruh raisi o'rinbosari*
3. Farhodov Fozilbek - Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini
Bahrom o'g'li oshirish markazi direktorining birinchi o'rinbosari, *a'zo*
4. Raxmonov Shohzod - Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini
Husan o'g'li oshirish markazi bo'lim boshlig'i, *a'zo*
5. Kamilbekova Malika - Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini
Bilol qizi oshirish markazi bo'limi bosh mutaxassisi, *a'zo*
6. Ummatov Obidjon - Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini
Olimjon o'g'li oshirish markazi bo'limi bosh mutaxassisi, *a'zo*
7. Maxmudov Axmadxon - Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini
Muhammadsaid o'g'li oshirish markazi bo'limi bosh mutaxassisi, *Tashkiliy ishchi guruh kotibi*

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining

2024-yil 11 - noyabr kuni
408 -son qaroriga

2-ilova



**Talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan "Jadidlar jasorati – millatimiz faxri"
hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari"
mavzularida insholar tanlovini**

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba-yoshlar o'rtasida **"Jadidlar jasorati – millatimiz faxri"** hamda **"Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari"** mavzularida insholar tanlovini (keyingi o'rinlarda Tanlov deb yuritiladi) doimiy o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovda talaba-yoshlarning keng qamrovli ishtiroki oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari hamda filiallar direktor o'rinbosarlari tomonidan ta'minlanadi va muvofiqlashtiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

3. Tanlovning asosiy maqsadi – jadid bobolarimiz faoliyatini o'rganish, ularning ibratli hayoti va ijodi bilan tanishish, katta tajriba va mahorat maktabi sifatida ko'rish, bizga meros bo'lib qoldirgan asarlari va g'oyalari ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligini chuqurroq o'rganishdan iborat.

4. Tanlovning vazifasi – taraqqiyparvar ajdodlarimizni nafaqat xotirlash, balki ular boshlab bergan birlik hamda taraqqiyotni davom ettirish, shuningdek talaba-yoshlarni qo'llab-quvvatlash, yuksak ma'naviyatni shakllantirish hamda badiiy asarlari roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish, Vataniga sadoqatli vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida talabalarning tasavvurlarini yanada boyitishdan, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda munosib rag'batlantirishdan iborat.

III. Tanlovni tashkil etish tartibi va shartlari

5. Tanlov Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (keyingi o'rinlarda – Tashkilotchi deb yuritiladi) tomonidan tashkil etiladi. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim muassasalarining barcha bosqichda tahsil olayotgan talaba-yoshlari ishtirok etadi.

6. Tanlovni birinchi oliy ta'lim muassasasi bosqichini o'tkazish bo'yicha hududiy ishchi guruhlari tuziladi hamda tanlovning tashkil etish hamda ishchi guruhlarga oliy ta'lim muassasalari rektorlari (1-prorektorlari) rahbarlik qiladi va yuqori saviyada tashkil etilishiga shaxsan mas'ul hisoblanadi.

7. Tanlov **2 bosqich**da o'tkaziladi:

1 - oliy ta'lim muassasasi bosqichi;

2 - yakuniy respublika bosqichi.

8. Tanlovning birinchi oliy ta'lim muassasasi bosqichi 2025-yil **yanvar oyining ikkinchi o'n kunligida**, 2-yakuniy respublika bosqichi 2025-yilning **fevral-mart oylari** davomida o'tkaziladi.

9. Ishtirokchi talabalarga insho yozishlari uchun 1 soat vaqt beriladi.

10. Tanlov o'tkazilishi yuzasidan joriy yilning dekabr oyidan boshlab oliy ta'lim muassasasing rasmiy kanallarida e'lon berilib, hududdagi ishchi guruhlar tanlovda qatnashmoqchi bo'lgan nomzodlar ro'yxatini shakllantiradi.

11. Tanlovning 1-oliy ta'lim muassasasi bosqichida Tanlovni o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlari tuziladi hamda ishchi guruhlariga oliy ta'lim muassasalari rektorlari (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari) mas'ulligida Hakamlar hay'ati tarkibi shakllantiriladi. Ushbu bosqichda ta'lim muassasasi tomonidan shakllantirilgan Hakamlar hay'ati yozilgan insholarni tekshiradi va 1 nafar g'olib bo'lgan ishtirokchiga keyingi bosqich uchun yo'llanma beradi.

12. Oliy ta'lim muassasasi bosqichida 1-o'rinni egallagan ishtirokchi keyingi saralash bo'lib o'tadigan joyga tanlov o'tkazilganligi va g'oliblar to'g'risidagi bayonnomasi, talabalik guvohnomasi (yoki ID kartasi) va pasporti (*nusxasi*) bilan mintaqalarda bo'lib o'tadigan saralashda ishtirok etadi. Ushbu hujjatlarni saralash bo'lib o'tadigan mintaqadagi mas'ullarga taqdim etmagan taqdirda tanlovda ishtirok etishga yo'l qo'yilmaydi.

13. Tanlovning mintaqalarda bo'lib o'tadigan saralashi buyruqning 4-ilovasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida belgilangan joylarda bo'lib o'tadi. Ishtirokchi talabalar tomonidan yozilgan insho daftarlari (*yozilgan 12 varaqli daftar ustiga oliy ta'lim muassasasi nomi talabaning ism-familiyasi va kursi to'liq yoziladi*) tashkilotchi tomonidan birlashtirilgan mas'ul ishtirokida yozilgan insholar yig'ib olinadi va respublika bosqichiga taqdim etiladi.

14. Tanlovning 2-yakuniy respublika bosqichida Hakamlar hay'ati tarkibi tuziladi va buyruqning 4-ilovasidagi belgilangan mintaqalardan ishtirok etgan ishtirokchi talabalar yozgan insholarini Hakamlar hay'ati tomonidan tekshirilib baholanadi hamda ballar ketma-ketligida 2 ta mavzu bo'yicha g'oliblar aniqlanadi.

15. Hakamlar hay'ati chiqargan qarorni muhokama etishga yo'l qo'yilmaydi.

16. Respublika bosqichida ishtirok etgan ishtirokchilarning yozgan insholari 6 oy davomidan saqlanadi.

IV. Tanlov shartlarini baholash mezonlari

17. Tanlovda ishtirokchilar o'zbek va qoraqalpoq tillarida (*12 varaqli daftarda yoziladi*) insho yozishlari mumkin.

18. Tanlovda **“Jadidlar jasorati – millatimiz faxri”** hamda **“Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari”** mavzularidan biriga insho yoziladi. Ushbu insholar Hakamlar hay'ati oldidan konvertda tanlab olinadi va tanlangan mavzu bo'yicha yoziladi.

19. Yozilgan insholar quyidagi baholash mezonlar asosida baholanadi:

- mavzuning to'laqonli ochib berilganligi – 20 ball;
- jadidlar jasorati, meros bo'lib qoldirgan asarlari va g'oyalari ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligini ochib berilganligi – 20 ball;
- imloviy savodxonligi, so'z boyligi va uslubiy mahorati – 20 ball;

- jadidlarning Vataniga sadoqatli vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashdagi fikr-qarashlarini ochib berilganligi – 20 ball;

- xulosaviy fikrlarning mavjudligi hamda ularni ifoda etish mahorati – 20 ball.

20. Insholar Hakamlar hay'ati tomonidan tekshiriladi va 100 ballgacha baholanadi

V. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

21. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichi 1-, 2- va 3-o'rin g'oliblari oliy ta'lim muassasalari tomonidan faxriy yorliq va ishtirokchi talabalar tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasasi budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning 1 barobari miqdorida (daromad solig'i bilan qo'shib hisoblangan) bir martalik rag'batlantiriladi.

22. Tanlovning yakuniy respublika bosqichida eng yuqori ball to'plab ballar ketma-ketligida g'olib bo'lgan 6 nafar ishtirokchi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan vazirlikning Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan (daromad solig'i bilan qo'shib hisoblangan) quyidagi tartibda:

“Jadidlar jasorati – millatimiz faxri” mavzusida

1-o'rin – 8 000 000 so'm;

2-o'rin – 6 000 000 so'm;

3-o'rin – 5 000 000 so'm,

“Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari” mavzusida

1-o'rin – 8 000 000 so'm;

2-o'rin – 6 000 000 so'm;

3-o'rin – 5 000 000 so'm miqdorda pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

23. Tanlovni yuqori saviyada tashkil etgan tashkilotchi (Respublika tashkiliy ishchi guruh) mas'ul xodimlari asosiy ish joylaridan mehnatga haq to'lashning 10 barobari miqdorigacha rag'batlantiriladi.

VI. Yakuniy qoidalar

24. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy veb-saytlarda e'lon qilib boriladi.

25. Tanlov ishtirokchisi tanlovning barcha bosqichlarini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, uning natijasidan norozi bo'lsa O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida” 2017 yildagi 11-sentabrdagi O'RQ-445-son qonuniga muvofiq murojaat qilish huquqiga ega.

26. Respublika tashkiliy ishchi guruh tomonidan tanlov nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

27. Tanlov bilan bog'liq ishtirokchilarning kelib-ketishi va ovqatlanish xarajatlari oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

28. Tanlovning barcha bosqichida xizmat safari bilan bog'liq sarf-xarajatlar xodimning asosiy ish joyidan qoplanadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

2024-yil 11 - noyabrda

428 -son buyrug'iga

3-ilova



Talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan "Jadidlar jasorati – millatimiz faxri"
hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari"
mavzularida insholar tanlovini tashkil etish
va g'oliblarni taqdirlash bilan bog'liq
xarajatlar smetasi

T/r	Xarajat nomi	Miqdori	Narxi	Umumiy xarajat va manbasi
1.	G'oliblarni taqdirlash	"Jadidlar jasorati – millatimiz faxri"	1-o'rin – 8 000 000 2-o'rin – 6 000 000 3-o'rin – 5 000 000	38.000.000 Vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan
		"Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari"	1-o'rin – 8 000 000 2-o'rin – 6 000 000 3-o'rin – 5 000 000	
2.	Statuetka	6 ta	500.000	3.000.000 Vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan
3.	Vaucher	6 ta	500.000	3.000.000 Vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan
4.	Taqdirlash kuni taniqli san'atkor	-	3 000 000	3.000.000 Vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan
5.	Qo'shimcha xarajatlar	Gul, diplom qog'oz, ramka, insho yozish uchun daftar, tanlov tashkilotchilarni rag'batlantirish va hokazo	-	15.000.000 Vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan
Jami xarajatlar				62.000.000

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
2024-yil 11 - fevradagi
428 -sonli buyrug'iga
4-ilov



**Talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan "Jadidlar jasorati – millatimiz faxri"
hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqbol va davlatchilik g'oyalari"
mavzularida insholar tanlovining mintaqaviy saralashini
o'tkazish sanalari va joylari
JADVALI**

Guruhlar	O'tkazish joyi va mas'ul	O'tkazish muddati va vaqti	Ishtirok etadigan OTMLar
1-guruh	Qoraqalpoq davlat universiteti	2025-yil 3-fevral soat 11:00	Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi barcha OTMLar
2-guruh	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	2025-yil 5-fevral soat 11:00	Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlaridagi barcha OTMLar
3-guruh	Qarshi davlat universiteti	2025-yil 6-fevral soat 11:00	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi barcha OTMLar
4-guruh	Guliston davlat universiteti	2025-yil 7-fevral soat 11:00	Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi barcha OTMLar
5-guruh	Namangan davlat universiteti	2025-yil 10-fevral soat 11:00	Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlaridagi barcha OTMLar
6-guruh	Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi	2025-yil 12-fevral soat 11:00	Toshkent viloyati hamda (Toshkent shahridagi) Chilonzor, Sergeli, Yashnobod, Mirzo Ulug'bek, Bektemir tumanlaridagi barcha OTMLar
7-guruh	Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi	2025-yil 13-fevral soat 11:00	Toshkent shahridagi Olmazor, Uchtepa, Shayxontohur, Yunusobod, Yakkasaroy, Mirobod tumanlaridagi barcha OTMLar

**Izoh. Ushbu 4-ilovadagi jadvalda belgilangan tanlovni o'tkazish sanalar va joylari Respublika ishchi guruhi tomonidan o'zgartirilishi mumkin., bu haqda qo'shimcha ma'lumotlar vazirlikning xati orqali ma'lum qilinadi.*